XALQ DEPUTATLARI BO‘STONLIQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

Mustaqillik-14, +998 70 742 1015, Toshkent v. Bo'stonliq t. G'azalkent sh.

2025-yil 30-dekabr VII-24-118-10-136-K/25 Bo’stonliq tumani

Bo‘stonliq tumanining 2026-yil uchun mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 26-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-son Qonuni, Budjet kodeksining 27 va 99-moddalari, Soliq kodeksining 429 va 437-moddalari, xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi “Toshkent viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-26-162-10-0-K/25-sonli qaroriga asosan tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025-yil 6-noyabrdagi 02293-sonli va Davlat soliq inspeksiyasi tuman bo‘limining 2025-yil 1-dekabrdagi P-16184-sonli murojaatlarini ko‘rib chiqib, tuman hokimining birinchi o‘rinbosari X. Abduyusupovning hisobotini tinglab, Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyaning 2025-yil 1-dekabrdagi 03-01-DKB/44-sonli hamda 2025-yil 29-dekabrdagi 03-01-DKB/50-sonli yig‘ilishbayonlarini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Bo‘stonliq tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 26-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-son Qonuni, xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi “Toshkent viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-26-162-10-0-K/25-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda Qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Qarorga muvofiq, Bo‘stonliq tumani mahalliy budjetining 2026-yil uchun daromadlar rejasi – **128 547 450 ming so‘m** va xarajatlari – **128 547 450 ming so‘m** etib ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek, tumani mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **553 017,0 ming so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Quyidagilar:

Bo‘stonliq tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari hamda ajratmalar me’yorihaqida ma’lumotlar 1-ilovaga;

Bo‘stonliq tumani mahalliy budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari haqida ma’lumot 2-ilovaga;

Bo‘stonliq tumani budjeti shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori haqida ma’lumot 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Bo‘stonliq tumani mahalliy budjetining **3,5 foizi** xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlarining bevosita tashabbusi asosida shakllantirilib, ushbu **4,4 mlrd. so‘m** miqdordagi mablag‘lar Kengashning qarori asosida 2026-yilda tumanning ichki yo‘llarini ta’mirlashga sarflanishi belgilab qo‘yilsin.

5. Tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 785 085 ming so‘m** miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

6. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari X. Abduyusupov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (E. Turobov), Davlat soliq inspeksiyasi tuman bo‘limi (Z. Zokirov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsinlar.

7. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanilishi, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, shuningdek oziq-ovqat, dori-darmon,

kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanilishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Tuman mahalliy budjetidan moliyalashtiriluvchi tashkilotlarning kommunal xizmatlardan ajratilgan limitlar doirasida foydalanishi, kommunal xizmatlardan qarzdorlik vujudga kelgan taqdirda mazkur qarzdorliklar budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan bartaraf qilinishi, qarzdorliklar o‘z vaqtida bartaraf etilmagan hollarda budjet tashkilotlari rahbarlariga va mas’ul xodimlariga qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli choralar ko’rilishi ta’minlansin.

9. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar haqida ma’lumot 4-ilovaga;

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar haqida ma’lumot 5-ilovaga;

jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1,0 kv.m uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar haqida ma’lumot 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, 2026-yilda soliq yukining keskin oshishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida, jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i summasi 2025-yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 barobaridan oshmasligi lozimligi ko‘rsatib o‘tilsin.

10. Davlat soliq inspeksiyasi tuman bo‘limi (Z. Zokirov):

6-ilovada qo‘llanilgan koeffitsiyentlar va soliq stavkalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni soliq to‘lovchilarga 5 kunlik muddatda yetkazish;

budjet daromadlari ko‘rsatkichlarining bajarilishini ta’minlash, soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida har oyning 5-sanasiga qadar xalq deputatlari tuman Kengashiga axborot kiritib borish vazifalari yuklatilsin.

11. Bo‘stonliq tumanida 2026-yil uchun mol-mulkini ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun 1 m^2 uchun belgilangan ijara to‘lovining:

eng kam stavkalari haqida ma’lumot 7-ilovaga;

alohida stavkalar qo‘llaniladigan mahallalari ro‘yxati 8-ilovaga muvofiq ma’qullansin.

12. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (E. Turobov), Davlat soliq inspeksiyasi tuman bo‘limi (Z. Zokirov) belgilangan hududlarda jismoniy shaxslar, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliqlarini to‘liq hajmda tuman budjetiga o‘tkazish choralarini ko‘rsinlar.

13. Tuman hokimligi axborot xizmati (Y. Abdullayev), “Bo‘stonliq ovozi” gazetasi (A. Kulbayev) mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari va tuman gazetasida yoritilishini ta’minlasinlar.

14. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Bo‘stonliq tumani Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (U. Aripbayev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **AXMEDOV JO‘RABEK ILXOMOVICH**

Xalq deputatlari Bo’stonliq tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-24-118-10-136-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Bo‘stonliq tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari hamda ajratmalar me’yori haqida
MA’LUMOT

T/r.	Daromad turlari	Summa, *ming so‘mda*	Ajratmalar me’yori, *foizda*	
			DSI+DSB	MRI
Jami:		**128 547 450**		
1.	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	2 479 540	2	0
2.	Foyda solig‘i	877 700	2	0
3.	Aylanmadan olinadigan soliq	816 760	7	0
4.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	4 465 140	3	0
5.	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan olinadigan daromad solig‘i	3 596 000	100	100
6.	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	19 444 000	100	100
7.	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	50 726 000	100	100
8.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	371 240	2	0

9.	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	2 898 450	5	0
10.	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	436 000	100	100
11.	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0	0	0
12.	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	2 092 000	100	100
13.	Aksiz solig‘i	1 327 200	8	0
	shundan:			
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	*0*	*0*	*0*
	pivo	*0*	*0*	*0*
	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	*1 327 200*	*8*	*0*
14.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	14 579 820	100	99
	shundan:			
	qishloq bo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	*5 010 000*	*40*	*40*
	qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	*-2 004 000*	*40*	*40*
15.	Davlat boji	5 233 000	100	100
16.	Yig‘imlar	43 600	5	5
17.	Jarimalar	19 161 000	100	100

Xalq deputatlari Bo’stonliq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-24-118-10-136-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Bo‘stonliq tumani mahalliy budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari haqida
MA’LUMOT

T/r.	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Summa, *ming so‘mda*
Xarajatlar miqdori, jami		**128 547 450**
1.	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	35 028 911
	shundan:	
	"Mening maktabim" loyihasi	*3 275 400*
	Barkamol avlod	*2 092 998*
	Umumta’lim maktablari	*6 938 772*
	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari	*15 649 915*
2.	Madaniyat bo‘limlari	6 035 720
	shundan:	
	Madaniyat bo‘limi	*2 344 627*
	17-sonli bolalar musiqa va san’at maktabi	*1 699 645*
	18-sonli bolalar musiqa va san’at maktabi	*1 991 448*
3.	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	4 580 694
4.	Sport bo‘limi	5 854 241
5.	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi	1 523 599
6.	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	2 887 115
	shundan:	
	Veterinariya bo‘limi	*2 399 635*
	Vetlaboratoriya	*487 480*
7.	Irrigatsiya bo‘limi	1 974 372
8.	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarining saqlash xarajatlari	2 216 993
9.	Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy bo‘limi, Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	0
10.	Hokimiyat	43 998 099
	shundan:	
	Tuman hokimligi	*6 947 319*
	Hokim yordamchilari	*6 370 486*
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	*2 784 720*
	“Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasi	*23 513 128*

	“Mahalla budjeti” jamg‘armasi	*2 597 361*
	Zaxira jamg‘armasi	*1 785 085*
11.	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi jamg‘arma)	798 730
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasining saqlash xarajatlari	*0*
	Axborot-kutubxona markazi	*798 730*
12.	Obodonlashtirish boshqarmasi	23 370 957
	shundan:	
	*Deputatlar taklifiga ko‘ra asfaltlashtirish**	*4 400 000*
13.	Ijtimoiy ko‘nikma markazi	278 019

**- Izoh: Xalq deputatlari Bo‘stonliq tumani Kengashi qaroriga asosan foydalanishga ruxsat etiladi.*

Xalq deputatlari Bo’stonliq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-24-118-10-136-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun Bo‘stonliq tumani budjeti shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori haqida
MA’LUMOT

T/r.	**Hudud**	**Summa,** *ming so‘mda*
1.	Bo‘stonliq tumani	553 017

Xalq deputatlari Bo’stonliq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-24-118-10-136-K/25 -son qaroriga
4-ilova

2026-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar haqida
MA’LUMOT

T/r.	Hudud nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YATTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
3	Bo‘stonliq tumani	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20

*Izoh: *- Qishloq ho‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi.*

Xalq deputatlari Bo’stonliq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-24-118-10-136-K/25 -son qaroriga
5-ilova

2026-yilda noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar* haqida
MA’LUMOT

T/r.	Hudud nomi	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh *(syement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezak toshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepisa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1.	Bo‘stonliq tumani	1,30	1,30	1,30	1,30	1,30	1,30	1,30

*Izoh: *- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari noruda qurilish materiallari uchun (syement ishlab chiqarishga mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy belgilangan stavkalarga 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffisiyent belgilashga haqli.*

Xalq deputatlari Bo’stonliq tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-24-118-10-136-K/25 -son qaroriga
6-ilova

Jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1,0 kv.m uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar haqida
MA’LUMOT

1 kv.metr uchun, so‘mda

T/r.	Mahalla nomlari	2025-yil uchun tasdiqlangan soliq stavkasi		2026-yil uchun							
				Viloyat miqiyosida				Tuman miqiyosida			
				Xalq deputatlari tomonidan belgilangan koeffitsiyentlar *(0,5 dan 2,0 gacha)*		Soliq stavkasi		Xalq deputatlari tomonidan, viloyat uchun belgilangan stavkaga nisbatan belgilangan koeffitsiyentlar *(0,7 dan 3,0 gacha)*		Soliq stavkasi	
		turar	noturar	turar	noturar	turar	noturar	turar	noturar	turar	noturar
1.	“Achchisoy” MFY	424,56	4 884,00	1,45	1,50	568,40	6 525,00	0,77	0,75	437,67	4 893,75
2.	“Aydarali” MFY	424,56	4 884,00	1,45	1,50	568,40	6 525,00	0,77	0,75	437,67	4 893,75
3.	“Bog‘chaovul” MFY	424,56	4 884,00	1,45	1,50	568,40	6 525,00	0,77	0,75	437,67	4 893,75
4.	“Barraj” MFY	530,70	6 715,50	1,45	1,50	568,40	6 525,00	0,95	1,04	539,98	6 786,00
5.	“Besh-tut” MFY	796,05	9 157,50	1,45	1,50	568,40	6 525,00	1,42	1,41	807,13	9 180,67
6.	“Birlik” MFY	610,31	7 936,50	1,45	1,50	568,40	6 525,00	1,08	1,22	613,87	7 960,50
7.	“Bog‘iston” MFY	477,63	4 884,00	1,45	1,50	568,40	6 525,00	0,85	0,75	483,14	4 893,75
8.	“Boladala” MFY	477,63	4 884,00	1,45	1,50	568,40	6 525,00	0,85	0,75	483,14	4 893,75
9.	“M.Baymurzayev” MFY	424,56	4 884,00	1,45	1,50	568,40	6 525,00	0,77	0,75	437,67	4 893,75
10.	“Boyterak” MFY	424,56	4 884,00	1,45	1,50	568,40	6 525,00	0,77	0,75	437,67	4 893,75
11.	“Bunyodkor” MFY	477,63	4 884,00	1,45	1,50	568,40	6 525,00	0,85	0,75	483,14	4 893,75
12.	“Burchmullo” MFY	610,31	7 326,00	1,45	1,50	568,40	6 525,00	1,08	1,13	613,87	7 373,25

13.	“Bo‘ston” MFY	610,31	7 020,75	1,45	1,50	568,40	6 525,00	1,08	1,08	613,87	7 047,00
14.	“Chimboyliq” MFY	583,77	7 020,75	1,45	1,50	568,40	6 525,00	1,05	1,08	596,82	7 047,00
15.	“Chimgan” MFY	689,91	9 157,50	1,45	1,50	568,40	6 525,00	1,22	1,41	693,45	9 180,67
16.	“Chinor” MFY	689,91	7 936,50	1,45	1,50	568,40	6 525,00	1,22	1,22	693,45	7 960,50
17.	“Daxana” MFY	610,31	7 020,75	1,45	1,50	568,40	6 525,00	1,08	1,08	613,87	7 047,00
18.	“Dumaloq” MFY	477,63	7 326,00	1,45	1,50	568,40	6 525,00	0,85	1,13	483,14	7 373,25
19.	“Do‘stlik” MFY	796,05	9 157,50	1,45	1,50	568,40	6 525,00	1,42	1,41	807,13	9 180,67
20.	“Fazogir” MFY	796,05	9 157,50	1,45	1,50	568,40	6 525,00	1,42	1,41	807,13	9 180,67
21.	“G‘azalkent” MFY	530,70	7 936,50	1,45	1,50	568,40	6 525,00	0,95	1,22	539,98	7 960,50
22.	“Iskandar” MFY	530,70	6 105,00	1,45	1,50	568,40	6 525,00	0,95	0,94	539,98	6 133,50
23.	“Istiqlol” MFY	610,31	7 020,75	1,45	1,50	568,40	6 525,00	1,08	1,08	613,87	7 047,00
24.	“Qaromozor” MFY	424,56	4 884,00	1,45	1,50	568,40	6 525,00	0,77	0,75	437,67	4 893,75
25.	“Kichiksoy” MFY	610,31	7 936,50	1,45	1,50	568,40	6 525,00	1,08	1,22	613,87	7 960,50
26.	“Qizil-suv” MFY	530,70	7 936,50	1,45	1,50	568,40	6 525,00	0,95	1,22	539,98	7 960,50
27.	“Qoraboy” MFY	424,56	4 884,00	1,45	1,50	568,40	6 525,00	0,77	0,75	437,67	4 893,75
28.	“Qoramanas” MFY	424,56	4 884,00	1,45	1,50	568,40	6 525,00	0,77	0,75	437,67	4 893,75
29.	“Ko‘k to‘nli” MFY	477,63	5 494,50	1,45	1,50	568,40	6 525,00	0,85	0,85	483,14	5 546,25
30.	“Qo‘shqo‘rgon” MFY	477,63	5 494,50	1,45	1,50	568,40	6 525,00	0,85	0,85	483,14	5 546,25
31.	“Ma‘rifat” MFY	610,31	7 020,75	1,45	1,50	568,40	6 525,00	1,08	1,08	613,87	7 047,00
32.	“Markaziy” MFY	610,31	7 020,75	1,45	1,50	568,40	6 525,00	1,08	1,08	613,87	7 047,00
33.	“Nanay” MFY	477,63	5 494,50	1,45	1,50	568,40	6 525,00	0,85	0,85	483,14	5 546,25
34.	“Novobod” MFY	689,91	7 936,50	1,45	1,50	568,40	6 525,00	1,22	1,22	693,45	7 960,50
35.	“Navro‘z” MFY	610,31	7 020,75	1,45	1,50	568,40	6 525,00	1,08	1,08	613,87	7 047,00
36.	“Obod” MFY	424,56	4 884,00	1,45	1,50	568,40	6 525,00	0,77	0,75	437,67	4 893,75
37.	“Pargos” MFY	424,56	4 884,00	1,45	1,50	568,40	6 525,00	0,77	0,75	437,67	4 893,75
38.	“Pskom” MFY	424,56	4 884,00	1,45	1,50	568,40	6 525,00	0,77	0,75	437,67	4 893,75
39.	“Qoronqul” MFY	689,91	9 157,50	1,45	1,50	568,40	6 525,00	1,22	1,41	693,45	9 180,67
40.	“Sari-Kanli” MFY	477,63	7 326,00	1,45	1,50	568,40	6 525,00	0,85	1,13	483,14	7 373,25
41.	“S.Xondoyliq” MFY	477,63	6 105,00	1,45	1,50	568,40	6 525,00	0,85	0,94	483,14	6 133,50
42.	“Sijjak” MFY	583,77	7 326,00	1,45	1,50	568,40	6 525,00	1,05	1,13	596,82	7 373,25
43.	“S.Raximov” MFY	583,77	7 326,00	1,45	1,50	568,40	6 525,00	1,05	1,13	596,82	7 373,25
44.	“T.Dadaboyev” MFY	424,56	4 884,00	1,45	1,50	568,40	6 525,00	0,77	0,75	437,67	4 893,75

45.	“Tovoqsoy” MFY	530,70	6 105,00	1,45	1,50	568,40	6 525,00	0,95	0,94	539,98	6 133,50
46.	“Tolebi” MFY	424,56	4 884,00	1,45	1,50	568,40	6 525,00	0,77	1,75	437,67	4 893,75
47.	“Ugam” MFY	689,91	7 936,50	1,45	1,50	568,40	6 525,00	1,70	1,22	699,72	7 960,50
48.	“Uyenkulsoy” MFY	424,56	4 884,00	1,45	1,50	568,40	6 525,00	0,77	0,75	437,67	4 893,75
49.	“Uzun” MFY	424,56	4 884,00	1,45	1,50	568,40	6 525,00	0,77	0,75	437,67	4 893,75
50.	“Xo‘jaobod” MFY	477,63	5 494,50	1,45	1,50	568,40	6 525,00	0,85	0,85	483,14	5 546,25
51.	“Xo‘jakent” MFY	689,91	9 157,50	1,45	1,50	568,40	6 525,00	1,22	1,41	693,45	9 180,67
52..	“Xumsan” MFY	689,91	7 936,50	1,45	1,50	568,40	6 525,00	1,22	1,22	693,45	7 960,50
53.	“Yakkatut” MFY	610,31	7 326,00	1,45	1,50	568,40	6 525,00	1,08	1,13	613,87	7 373,25
54.	“Yangiqo‘rg‘on” MFY	530,70	7 936,50	1,45	1,50	568,40	6 525,00	0,95	1,22	539,98	7 960,50
55.	“Yoshlik” MFY	530,70	6 105,00	1,45	1,50	568,40	6 525,00	0,95	0,94	539,98	6 133,50

Xalq deputatlari Bo’stonliq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-24-118-10-136-K/25 -son qaroriga
7-ilova

2026-yil uchun Bo‘stonliq tumanida mol-mulkini ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam STAVKALARI

Ijaraga beriladigan mol-mulk turi	Belgilangan stavka miqdorini tavsiflovchi ko‘rsatkich	Oylik ijara to‘lovi stavkalarining eng kam miqdorlari, *so‘mda*	
		Birinchi toifadagi mahallalar uchun	Ikkinchi toifadagi mahallalar uchun
Binolar:			
turar joy	umumiy maydonning 1 kv.metri uchun	30 000	14 500
noturar joy		48 000	28 500

Xalq deputatlari Bo’stonliq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-24-118-10-136-K/25 -son qaroriga
8-ilova

2026-yilda Bo‘stonliq tumanida mol-mulkini ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun alohida stavkalar belgilangan mahalla fuqarolar yig‘inlari
RO‘YXATI

T/r.	Mahalla fuqarolar yig‘ini nomi	Toifa raqami
1.	Kichiksoy	Birinchi
2.	Birlik	Birinchi
3.	Ko‘k-to‘nli	Birinchi
4.	S.Xondayliqiy	Birinchi
5.	Chimboyliq	Birinchi
6.	Qizil-suv	Birinchi
7.	Fazogir	Birinchi
8.	Xo‘jakent	Birinchi
9.	Besh-tut	Birinchi
10.	Do‘stlik	Birinchi
11.	Xumson	Birinchi
12.	Chimgan	Birinchi
13.	Novobod	Birinchi
14.	S.Raximov	Ikkinchi
15.	G‘azalkent	Ikkinchi
16.	Ugam	Ikkinchi
17.	Chinor	Ikkinchi
18.	Sijjak	Ikkinchi
19.	Nanay	Ikkinchi
20.	Bog‘iston	Ikkinchi
21.	Boladala	Ikkinchi
22.	Yakkatut	Ikkinchi
23.	Burchmullo	Ikkinchi
24.	Yangiqo‘rg‘on	Ikkinchi
25.	Novobod	Ikkinchi